

### III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 29 209,8 mlrd. so‘mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 28 503,5 mlrd. so‘mni (103,7 %), o‘rmon xo‘jaligi – 556,1 mlrd. so‘mni (102,5 %), baliqchilik xo‘jaligi – 150,2 mlrd. so‘mni (114,3 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Andijon viloyatining ulushi 10,0 % ni tashkil etdi.



29 209,8

Andijon viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m

01



28 503,5

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02



556,1

O‘rmon xo‘jaligi


03




150,2

Baliqchilik xo‘jaligi

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, % da



2023-yilning yanvar-sentabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,6 foizi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlarga, 1,9 foizi - o‘rmon xo‘jaligiga, 0,5 foizi - baliqchilik xo‘jaligiga to‘g‘ri keladi.


### Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Jalaquduq 3 125,6 mlrd. so‘m) va Asaka (2 955,3 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xonobod (176,0 mlrd. so‘m) va Andijon shahri (879,4 mlrd. so‘m)ni keltirib o‘tish mumkin.


## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'atlari




### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 28 292,0 mlrd. so'mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 17 388,8 mlrd. so'mni (103,7 %), chorvachilik mahsulotlari – 10 903,3 mlrd. so'mni (103,8 %) tashkil qildi.

### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, %



**Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari  
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da**




**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida  
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, % da**



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 64,1 foizi - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 32,0 foizi - fermer xo'jaliklariga, 3,9 foizi - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

**Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, % da**



2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Ulug‘nor tumanida (47,1 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Andijon shahrida (91,7 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Bo‘ston tumanida (11,8 %) qayd etildi.


Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Xonobod shahrida (0,9 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Paxtaobod tumanida (50,9 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Buloqboshi tumanida (0,5 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik


2023-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 17 388,8 mlrd. soʻmni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 59,5 % ni tashkil qildi.

### Donli ekinlar


**Hajmi, ming t.**



**Oʻsish surʼati, % da**



**Yetishtirilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi, % da**




### Fermer xoʻjaliklari

### Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari

- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




**Hududlar boʻyicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, ming t.**




## Sabzavotlar

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1295,5 ming tonna sabzavotlar (2022-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 0,5 %ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 69,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.




### Sabzavot yetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



### Hududlar bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, ming t.







## Kartoshka

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 247,2 ming tonna kartoshka (2022-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 1,7 % ga ko'p) yetishtirildi. Kartoshka mahsulotini yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka mahsuloti umumiy hajmidan 61,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati, % da**



**Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da**




**Fermer xo'jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




**Hududlar bo'yicha kartoshka yetishtirish hajmi, ming t.**




## Poliz

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 119,6 ming tonna poliz (2022-yilning yanvar-sentabrga nisbatan 1,8 % ga ko‘p) yetishtirildi. Poliz mahsulotini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz mahsuloti umumiy hajmidan 89,4 foizi fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.


**Hajmi, ming t.**



**O‘shish sur‘ati, % da**



**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




**Hududlar bo‘yicha poliz yetishtirish hajmi, ming t.**




## Meva va rezavorlar


2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 475,8 ming tonna meva va rezavorlar (2022-yilning yanvar-sentabrga nisbatan 6,2 % ga ko'p) yetishtirildi. Meva va rezavorlar mahsulotini yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, meva va rezavorlar mahsuloti umumiy hajmidan 63,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



**Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da**




**Hududlar bo'yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, ming t.**




## Uzum

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 56,5 ming tonna uzum (2022-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 94,4 %) yetishtirildi. Uzum mahsulotini yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum mahsuloti umumiy hajmidan 55,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.


**Hajmi, ming t.**



**O‘shir sur‘ati, % da**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



**Hududlar bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna**




## Chorvachilik



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 10 903,3 mlrd. soʻmni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,8 %ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 37,8 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 132,5 ming tonna goʻsht (2022-yilning yanvar-sentabrga nisbatan 5,0 %ga koʻp), 685,6 ming tonna sut (3,3 % ga koʻp) sogʻib olindi, 448,8 mln. dona tuxum (2,8 % ga koʻp) yetishtirildi va 9,0 tonna baliq (14,6 % ga koʻp) ovlandi.


## Go'sht (tirik vaznda)

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 132,5 ming tonna go'sht (2022-yilning yanvar-sentabrga nisbatan 5,0 % ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 82,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati, % da**



**Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da**




**Fermer xo'jaliklari**

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




**Hududlar bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, ming tonna**




## Sut

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 685,6 ming tonna sut (2022-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 3,3 % ga ko'p) sog'ib olindi. Sut sog'ib olish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut sog'ib olish umumiy hajmidan 90,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati, % da**




**Sog'ib olingan sutning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




**Hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, ming tonna**




## Tuxum

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 448,8 mln. dona tuxum (2022-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 2,8 % ga ko‘p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 70,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.


**Hajmi, mln. dona**



**O‘sish sur‘ati, % da**



**Olingan tuxumning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



**Hududlar bo‘yicha olingan tuxum hajmi, mln. dona**







## Baliq

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 8 955 tonna (2022-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 14,6 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliqlar umumiy hajmidan 27,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.


**Hajmi, tonna**



**O'sish sur'ati, % da**




**Ovlangan baliq mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



**Hududlar bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna**



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2023-yining 1-oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,3 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 5,6 foizi fermer xo'jaliklariga, 93,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Otlar umumiy sonidan 22,3 foizi fermer xo'jaliklariga, 76,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 14,7 foizi fermer xo'jaliklariga, 53,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 31,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


## Yirik shoxli qoramollar

2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 146,5 ming taga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 983,9 ming taga (10,7 %) ko'paydi.

2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



**Hududlar bo'yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh**




## Sigirlar


2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 392,9 ming taga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 6,9 ming taga (1,8 %) ko'paydi.

2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 91,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.


**Soni, ming bosh**



**O'sish sur'ati, % da**




**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





**Hududlar bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh**




## Qo'y va echkilar

2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 1 550,5 ming taga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni – 43,9 ming taga (2,9 %) ko'paydi.

2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, qo'y va echkilarning 93,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.




**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




**Hududlar bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh**




## Otlar

2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 7 286 taga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni -312 taga (4,5 %) ko'paydi.

2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 76,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.




**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



**Hududlar bo'yicha otlarning umumiy bosh soni**




## Parrandalar


2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, parrandalar umumiy bosh soni 10 152,3 ming taga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 983,9 ming taga (10,7 %) ko'paydi.

2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, parrandalarning 53,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


**Soni, ming bosh**



**O'sish sur'ati, % da**




**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



**Hududlar bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh**



## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Dehqonchilik mahsuloti** – hisobot davrida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko'p yillik yosh ko'chatlarni o'stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan yetishtirish qiymatlarining o'zgarishi yig'indisidir.

**Chorvachilik mahsuloti** – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o'stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirish qiymatlarini o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

**Ovchilik** – ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko'rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko'paytirish va davolash xarajatlari hisobga olinadi.

**O'rmon xo'jaligi** – o'rmon va o'rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'rmon xo'jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong'inga qarshi dasturlarni ishlab chiqarish kiradi. O'rmon xo'jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag'ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko'chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi qo'ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong'oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

**Baliqchilik xo'jaligi** – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko'paytirish va yaxshilashni o'z ichiga oladi.

**Qishloq xo'jaligi ekinlarining yig'ilgan yalpi hosili** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, fermer va dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida asosiy va takroriy, bog'larning qator oralaridagi qishloq xo'jaligi ekinlaridan yig'ib olingan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi.



**Fermer xo‘jaliklari** – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari** – oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a’zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar** – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

**Mollar bosh soni** – xo‘jalik toifalari bo‘yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o‘z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar va h.k.)

**Go‘sht yetishtirish** – so‘yish uchun sotilgan hamda o‘z xo‘jaligida so‘yilgan barcha turdagi qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o‘z ichiga oladi.

**Sut yetishtirish** – yosh mollarga ichirish uchun sog‘ib olingan sut va og‘iz sutini qo‘shgan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya sultari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi yetishtirishga kiritilmaydi.

**Tuxum yetishtirish** – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorida jo‘ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o‘z ichiga oladi.

**Jun yetishtirish** – xo‘jalikning ichki ehtiyojlariga sarflangani hamda junni saqlash va tashish jarayonida yo‘qotilganini qo‘shgan holda, qo‘y, echki, tuyalardan haqiqatda qirqib olingan natura vazndagi (qirqib olingandan keyingi vaznda) barcha junlarni o‘z ichiga oladi, bunga tullash juni, echki tiviti hamda takroriy qirqib olingan junlar ham qo‘shiladi.